



## XORIJIY INVESTITSİYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATI DINAMIKASI VA TAHLILI

**Abduraxmonov Azizbek Akram o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0006-3920-2445

[azizabdurahmonov65@gmail.com](mailto:azizabdurahmonov65@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmi, ularning samaradorligi va taqsimoti to'g'risidagi raqamli ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekiston-Xitoy o'rtasidagi investitsiyaviy hamkorlik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi, portfel investitsiyalar va xorijiy kreditlarning asosiy kapitalga jalb etilishi bo'yicha 2023 yil yakunlari ko'rib chiqiladi. Hududlar kesimida investitsiyalarning taqsimlanishi va eng yirik investor mamlakatlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** investitsiya muhiti, xorijiy investitsiyalar, chet el sarmoyalari, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, Yangi O'zbekiston strategiyasi, investitsiyaviy hamkorlik, iqtisodiy rivojlanish, asosiy kapital, portfel investitsiyalar.

## ДИНАМИКА И АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ С УЧАСТИЕМ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ

**Абдурахмонов Азизбек Акрам угли**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В статье анализируются меры, принимаемые в рамках стратегии развития «Новый Узбекистан» на 2022–2026 годы по привлечению инвестиций. Представлены количественные данные о динамике объемов иностранных и местных инвестиций, их эффективности и распределении. Рассматривается инвестиционное сотрудничество между Узбекистаном и Китаем, динамика прямых иностранных инвестиций, портфельных вложений и внешних кредитов, привлеченных в основной капитал по итогам 2023 года. Также приводится анализ распределения инвестиций по регионам и крупнейшим стран-инвесторов.

**Ключевые слова:** инвестиционный климат, иностранные инвестиции, зарубежные вложения, прямые инвестиции, стратегия «Новый Узбекистан», инвестиционное сотрудничество, экономическое развитие, основной капитал, портфельные инвестиции.

## DYNAMICS AND ANALYSIS OF THE ACTIVITY OF ENTERPRISES WITH FOREIGN INVESTMENT PARTICIPATION

**Abdurakhmonov Azizbek Akram ugli**  
Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract.** *The article analyzes the measures taken under the "New Uzbekistan" Development Strategy for 2022–2026 to attract investments. It provides quantitative data on the dynamics of foreign and local investments, their efficiency, and distribution. The article examines Uzbekistan-China investment cooperation, the dynamics of foreign direct investments, portfolio investments, and external loans attracted to fixed capital as of 2023. Additionally, it presents an analysis of investment distribution across regions and the top investor countries.*

**Keywords:** *investment climate, foreign investments, overseas capital, direct investments, New Uzbekistan strategy, investment cooperation, economic development, fixed capital, portfolio investments.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda investitsion muhitning shakllanishi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, O'zbekiston ham investitsion muhitni yaxshilash va chet el sarmoyalarni jalb qilish bo'yicha izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston hukumati tomonidan investorlar uchun qulay huquqiy va institutsional sharoitlar yaratish maqsadida bir qator qonunchilik islohotlari olib borilmoqda. Jumladan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlantirilishi va soliq imtiyozlarining taqdim etilishi mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan asosiy choralardan biri sifatida ko'riladi. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisobotlariga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda, bu esa amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

O'zbekistonda investitsion muhit va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining samaradorligini baholashga qaratilgan. Mazkur mavzu doirasida ko'plab ilmiy maqolalar, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari hamda hukumat tomonidan qabul qilingan hujjatlar tahlil qilingan. Xususan, BMT Taraqqiyot Dasturi (2023), Jahon Banki (2023), Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (2022) va Osiyo Taraqqiyot Banki (2023) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda O'zbekistonning investitsion salohiyati va chet el investitsiyalarini jalb qilish strategiyalari yoritilgan.

Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish bo'yicha nufuzli ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar xorijiy sarmoyalarning iqtisodiyotga ta'siri, investitsion islohotlarning natijalari va O'zbekistonning xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvi haqida tahliliy ma'lumotlar beradi (Karimov, 2021). So'nggi yillarda scholar.google.com va Scopus bazalarida chop etilgan maqolalar O'zbekistonning xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari va ularning hududiy taqsimoti bo'yicha chuqur tadqiqotlarni o'z ichiga oladi (Rasulov, 2022). Shu bilan birga, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan milliy qonunchilik bazasi, jumladan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun (Qonun, 2019) hamda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi normativ hujjatlar (Vazirlik, 2020; Qo'mita, 2023) ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur adabiyotlar sharhi asosida, O'zbekiston investitsion muhitining shakllanishi, xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar va ularning samaradorligi haqida ilmiy dalillarga asoslangan umumiy tasavvur shakllantirildi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda investitsion muhit va chet el sarmoyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilish uchun kombinatsiyalangan tadqiqot metodologiyasi qo'llanildi. Tadqiqot falsafasi induktiv va deduktiv yondashuvlar asosida shakllantirilib, empirik ma'lumotlarga asoslangan holat (case-study) tahlili va statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot dizayni investitsion muhitning dinamikasini o'rganish va uning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Asosiy ma'lumotlar xalqaro moliyaviy institutlarning hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari va xorijiy investitsiyalar bo'yicha hukumat tomonidan e'lon qilingan hujjatlar asosida shakllantirildi.

Metodologiya doirasida quyidagi tadqiqot strategiyalari qo'llanildi:

- Kuzatish – investitsion muhitning so'nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari va chet el kapitalining jalb qilinishi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlili.

- Keys-stadi (holat tahlili) – O'zbekiston-Xitoy iqtisodiy hamkorligi va sarmoyaviy loyihalari misolida investitsion jarayonlarning samaradorligi o'rganildi.

- Statistik tahlil – Davlat statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlariga asoslangan xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash.

Tadqiqot ishonchliligini (reliability) oshirish maqsadida birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar o'zaro taqqoslanib, ularning aniqligi (validity) xalqaro standartlarga muvofiq baholandi. Mazkur metodologik yondashuv asosida O'zbekistonda investitsion muhitning bugungi holati va istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham investitsiyalarni iqtisodiyotimizga jalb qilish o'z aksini topgan: mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish; investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish; 2026 yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish; davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollarga teng investitsiya jalb etish (Farmon, 2022).

O'zbekiston-Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal sur'atda o'sib, keng ko'lam kasb etayapti. Xususan, keyingi yillarda o'zaro savdo hajmi ikki barobar ko'payib, 2023 yilda rekord ko'rsatkich – 14 milliard dollarga yetdi (Ma'ruza, 2024a), ya'ni Xitoyning O'zbekistonga kiritgan umumiy investitsiyalari hajmi 14 milliard dollardan oshdi. Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni uch barobar ko'paydi.

"O'zbekiston joriy yil olti oyda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hajmi o'tgan yilga nisbatan 2 karra o'sib, 14 milliard dollarga yetdi. Bunday raqamlar 33 yillik tariximizda bo'lmagan" (Ma'ruza, 2024b).

O'zbekiston Respublikasida 2019-2023 yillar kesimida xorijiy sarmoya ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borish dinamikasiga ega (1-jadvalga qarang).

1-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinib turibdiki, 2019 yil boshiga xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni jami 7560 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil 1 yanvar holatiga ularning soni 1,9 barovarga yoxud 6493 taga oshib 14053 taga yetgan, jumladan 4657 ta qo'shma korxonalar va 9396 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2023 yilda O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 16 foizga – 2,6 mlrd dollardan 2,2 mlrd dollargacha qisqardi.


1-jadval

## Yillar kesimida xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	2019 yil 1 yanvar holatiga	2021 yil 1 yanvar holatiga	2022 yil 1 yanvar holatiga	2023 yil 1 yanvar holatiga	2024 yil 1 yanvar holatiga
Qo'shma korxonalar	4006	5672	5988	6419	4657
Xorijiy korxonalar	3554	6109	7301	9382	9396
<b>Jami:</b>	<b>7560</b>	<b>11781</b>	<b>13289</b>	<b>15801</b>	<b>14053</b>

2023 yilda portfel investitsiyalar hajmi qariyb 1 mlrd dollarni tashkil etgan. Bu oktyabr oyida chiqarilgan 4,25 trln so'm miqdoridagi «yashil» suveren xalqaro obligatsiyalar hamda 660 mln dollar miqdoridagi xalqaro obligatsiyalar bilan tavsiflanadi. 2023 yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1 trln so'mni tashkil etgan.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 352,1 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 66,4 % yoki 233,8 trln. so'm investitsiyalar jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 33,6 % yoki 118,3 trln. so'm moliyalashtirildi. Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 44,8 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 307,3 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.



1-rasm. Xorijiy investitsiya va kredit manbalari bo'yicha 2023 yilda asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi. 2023 yil yakuni bo‘yicha O‘zbekistonda jami haqiqatda o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibida aynan xorijiy investitsiyalar va kreditlar salmoqli o‘rin egalladi. Xususan, yuqori ko‘rsatkichlar Sirdaryo, Buxoro, Navoiy, Andijon, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida kuzatilmoqda (1-rasmga qarang).




## 2-rasm. 2023 yil yakuni bo‘yicha eng ko‘p chet el investitsiyalarini O‘zbekistonga kiritgan 10 ta investor-mamlakat

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 84,3 trln. so‘mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 9,1 % punktga ko‘payib, 24,0 % ni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 21,2 trln, so‘mni yoki, 2022-yilga nisbatan 130,3 % ni tashkil etdi. Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 82,4 trln, so‘mni yoki, 2022-yilga nisbatan 129,2 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali. O‘zbekistonga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning eng yuqori ulushi Xitoy xalq respublikasiga tegishli – 25,6%. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekistonning eng yirik investor mamlakatlari qatorida Rossiya – 13,4%, Saudiya Arabistoni – 7,9%, Turkiya – 6,4%, Birlashgan Arab Amirliklari – 5,8%, Germaniya – 4,3%, Kipr va Niderlandiya – 3,4% dan, Shveysariya – 3,1%, AQSH – 2,3% o‘rin egallagan.



**3-rasm. 2023 yilda hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'mda va foizda**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2023 yilda hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdori O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami 84 311,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan eng ko'p ulush Buxoro viloyatiga to'g'ri kelmoqda 12 496,0 mlrd. so'm yoxud 14,82%, eng kam ulush – Xorazm viloyati 1 399,7 mlrd. so'm yoxud 1,66%. Samarqand viloyati xo'jalik yurituvchi sub'ektlari asosiy kapitaliga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning salmog'i 6 894,0 mlrd. so'mni yoki jami jalb etilgan mablag'lar tarkibida 8,18% ga to'g'ri kelmoqda (3-rasmga qarang).

### Xulosa va takliflar.

O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorlik berayotgan bo'lsa-da, hali ham hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Xususan, investitsiyalarni jalb qilish jarayonining shaffofligini oshirish, investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratish va investitsiya xavflarini minimallashtirish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratish zarur.

O'tgan yillardagi investitsiya oqimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning asosiy investor mamlakatlari Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Turkiya va BAA bo'lib, bu davlatlarning sarmoyadorlari bilan strategik hamkorlikni yanada mustahkamlash lozim. Bunga qo'shimcha ravishda, Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarning investitsiyalarini ham faol jalb etish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak.

Investitsion muhitni yanada yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni ko'proq jalb qilish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Huquqiy islohotlarni davom ettirish – investorlarga huquqiy kafolatlar yaratish, soliqlar bo'yicha yanada qulay shart-sharoitlarni joriy etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish.
2. Byurokratik to'siqlarni kamaytirish – investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonini soddalashtirish va tezkor xizmatlarni rivojlantirish.
3. Infratuzilmani rivojlantirish – transport va logistika tizimlarini modernizatsiya qilish, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasini yanada takomillashtirish.
4. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish – xorijiy investorlar uchun imtiyozli kreditlar va grant dasturlarini kengaytirish.
5. Raqamli iqtisodiyotga sarmoya jalb qilish – axborot texnologiyalari, elektron tijorat va innovatsion startaplar sohasidagi investitsiyalarni rag'batlantirish.
6. Hududiy investitsion imkoniyatlarni kengaytirish – xorijiy investorlarni faqat yirik shaharlarga emas, balki viloyatlarga ham jalb qilish uchun maxsus erkin iqtisodiy zonalar yaratish.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonning investitsion jozibadorligi oshib, iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

- BMT Taraqqiyot Dasturi, (2023), O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha hisobot, Nyu-York, BMT Nashriyoti.*
- Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.*
- Jahon Banki, (2023), Markaziy Osiyo iqtisodiyoti va investitsiyalar, Vashington, Jahon Banki Nashriyoti.*
- Karimov S., (2021), Xorijiy investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, Toshkent, Iqtisodiyot Nashriyoti.*
- Ma'ruza (2024a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston-Xitoy investitsiya forumidagi ma'ruzasidan. 2024 yil 25 yanvar.*
- Ma'ruza (2024b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti ma'ruzasidan. 2024 yil 20 avgust, Nukus.*
- Osiyo Taraqqiyot Banki, (2023), O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, Manila, OTB Nashriyoti.*
- Qo'mita (2023) O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi, O'zbekistonda investitsiyalar va iqtisodiy o'sish tahlili, Toshkent, Davstat Nashriyoti.*
- Qonun (2019), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi.*
- Rasulov N., (2022), Investitsiyalarni jalb qilish va O'zbekistonning xalqaro bozorlar bilan integratsiyasi, Moskva, Ekonomika Nashriyoti.*
- Vazirlik (2020), O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi, Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tartiblar, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nashriyoti.*
- Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, (2022), O'zbekistonning investitsion salohiyati va makroiqtisodiy rivojlanish, Vashington, XVJ Nashriyoti.*